

AMIR TEMUR HUKMRONLIGI DAVRIDA ZARDO'ZLIK SAN'ATINING TARAQQIY TOPISHI.

M25-15 gurux magistri S.Qodirova
Ilmiy rahbar: f.f.n., U.S.Raxmatullayeva

Ushbu maqolada Amir Temur hukumronligi davrida zardo'zlik san'atining rivojlanishi va likkakdo'zi, vag'ardo'zi usullarining qo'llanilishi o'rganilgan. Shuning bilan bir qatorda Amir Temur hukumronligi davrida Likkakdo'zi va vag'ardo'zi usullarining tikilish texnikasi va ushbu usullarning qaysi kiyimlarda qo'llanishi o'rganilgan.

This article encompasses the development of goldbroading art and the utiliration of the litkakdo'zi, varakido'zi methods during the reign of Amir Temur. Also, it includes the sewing technics of the methods likkado'zi and vagardo'zi andi utiliration of thes methods in what type of clothes.

Amir Temur O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda juda katta hududlarni birlashtirdi. Tabiiyki, bu omil mazkur ulkan davlat tarkibiga kirgan xalqlarning madaniyatida ham o'zaro ta'sirning kuchayishiga olib keldi. Temur 1370-yilda mamlakatni mustahkamlashga muvaffaq bo'lgach, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan yuksalishga e'tibor qaratadi. Samarqandda saroy, masjidlar, madrasa va maqbaralar qurdiradi. Bu davrda yangi ko'rkam, mustahkam binolardan tashqari turli-tuman hunarmandlar mahallalari paydo bo'ladi. Temur bu mahallalardagi hunarmandlar uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi. Tashqi savdoda Samarqand katta o'rin tutganligi sababli bu shaharga turli mamlakatlardan, xususan, Xurosondan ma'danlar, Hind va Sinddan yoqut, olmos, Xitoydan atlas, choy, yashin toshi, mushk va boshqa mollar, Erondan qimmatbaho matolar, o'zga mamlakatlardan oltin va kumush olib kelinardi.

Zardo'zlik usullaridan likkakdo'zi va vag'ardo'zi usuli aslida bizning zardo'zligimizga xos bo'lmasdan, chetdan keltirilayotgan zardo'zi buyumlarning ta'sirida paydo bo'lgan. Ayniqsa, Hindiston, Erondan keltirilgan zardo'zlik buyumlari O'rta Osiyo zardo'zligida yangidan-yangi usullarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Temur hukmronligigacha bo'lgan davrda mamlakat parokandaligi sababli hunarmandchilik turlari, xususan, zardo'zlik usullari davomiyligiga e'tibor qaratilmagan. Tashqi savdoning jadal rivojlanishi chetdan keltirilayotgan zardo'zi buyumlar likkakdo'zi, vag'ardo'zi usullarining juda keng o'rin olishiga sabab bo'ladi. [1].(1-rasm).



1-rasm. Vag'ardo'zi usulida tikilgan to'nning orqa qismi

Bu ikki usul ham zardo'zlikning guldo'zi usuliga xos sanaladi. Guldo'zi tikish usuli zardo'zlikning qadimiy usullaridan biri bo'lib, zardo'zlikda eng ko'p qo'llanilgan usul hisoblangan. Bu usulda sariq rangga bo'yab ishlatiladigan charm, bo'z, karbosning ustki qismi zar iplar bilan bir tekisda

qoplab tikiladi. Bu usulda faqatgina gullar usti tikilgani uchun ham «guldo'zi» deb atalgan. Guldo'zi usulida zar ip matoni teshib o'tolmasligi sababli ular matoning teskari tomonidan oddiy iplar bilan mustahkamlangan Likkakdo'zi va vag'ardo'zining boshqa guldo'zi tarkibiga kiruvchi usullaridan asosiy farqi charm va karbos (hozirgi paytda faqatgina karton naqshlardan foydalaniladi) naqshlar o'rniga bir necha qavat qilib eshilgan iplarni yonma-yon tikib chiqish – siddi hosil qilish va siddilar ustini turli xil usulda to'ldirib chiqish orqali farqlanadi. Ikki usulda ham zar iplar qalinligiga ko'ra bir necha qavat qilib taxlanib, tikishda foydalaniladi. Agar ip yorlig'ida ipning qalinligi “№150” ko'rinishida bo'lsa, 4-5 qavat, “Ro150 ko'rinishida bo'lsa, 6-7 marta qavat qilib tikish kerak. Zar iplardan foydalanishdan ilgari ular belgilangan chegarada, ya'ni naxda uzun qilib olinadi va patilaga o'raladi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri patilaga o'ralmasdan, avval oddiy ip patilaga mahkam qilib bog'lanadi, so'ng shu ipga zar iplar ulanadi. Zar iplar to'g'ridan-to'g'ri patilaga ulansa, tezda uzilib ketishi mumkin. Zar iplarni o'rayotganda ularning tekis o'ralishiga e'tibor berish zarur [2]. Likkakdo'zi usulida bo'z, charm va karbos naqshlar o'rniga siddilar ishlatiladi. Likkak bo'laklarga bo'linib, bo'laklar siddilar ustiga tikiladi. Bo'laklar siddilarning yo'g'on yoki mayinligiga bog'liq bo'ladi. (2-rasm) Bu tikish usulida zardo'z patilaga o'ralgan zar ipni aylana harakat bilan siddi ustiga joylashtiradi va uni dastlab, asos qismida, so'ng aylananing kichik va kattaligiga qarab, bir necha joyidan, g'altak iplar yordamida mahkamlaydi. O'rta kattalikdagi aylanada o'rtacha 4 marta qaviq tikiladi. Bu usulning boshqa zardo'zlik usullaridan yana bir farqi uning murakkabligidadir.

2-rasm. Likkakdo'zi usulining tikish texnologiyasi

Vag'ardo'zi usuli ham xuddi likkakdo'zidek tikiladi. Bunda ham naqshlar o'rniga siddilar hosil qilinadi. Vag'ar bo'laklarga bo'linib, siddilar ustidan tikib chiqiladi. (3-rasm)




Zardo'zlikda yangi tikish usuli joriy etilgach, saroy hunarmandlari amaldorlar va ularning oila a'zolari uchun tikiladigan to'nlarning asosiy qismini likkakdo'zi va vag'ardo'zi usulida qoplashgan. Zardo'zi bitta to'nni tikish uchun hunarmandlar bir necha oy davomida igna qadashgan.

1404-yilda Samarqandda bo'lgan ispan elchisi Klavixo o'z esdaliklarida Temur saroyida bo'lganida, unga tilla iplar bilan bezatilgan to'n kiydirishganini yozib qoldiradi. Tabiiyki, bu to'n temuriylar davrida taraqqiy topgan likkakdo'zi va vag'ardo'zi usullari bilan boyitilgan edi.

Keyinchalik, bashang yuzasi to'la zardo'zi naqshlar bilan qoplangan zardo'zi to'nlari va boshqa uy-ro'zg'orda bezak sifatida ishlatiladigan zardo'zi buyumlarning soddalashib, odmilashib borishi sababli likkakdo'zi va vag'ardo'zi usullari zardo'zlikda qo'llanilmaydigan bo'ldi. Lekin XX asr zardo'zligida ham likkakdo'zi va vag'ardo'zi tushunchalarini uchratishimiz mumkin. Faqat bu tushunchalar, tikish usuli emas, balki zardo'zi buyumlarni bezash usuli sifatida qo'llaniladi.(4-rasm).

3- rasm. Vag'ardo'zi usulining tikish texnologiyasi





4-rasm Likkakdo'zi va Vag'ardo'zi usulida bezatish

Likkak — qimmatbaho metall toladan pishiq yigirilganligi uchun jingalak-jingalak bo'lib prujinaga o'xshab likillab turadigan bezak. Tilla yoki kumush ranglari mavjud. Bezatishda ham bo'laklarga bo'lib ishlatiladi. Asosan, ayollar to'nii uchun likkakdo'zi bazash usulidan foydalaniladi. Bu usulda bezatilgan kiyimlar o'zining nafisligi bilan alohida ajralib turadi.

Vag'ar — beshburchaksimon spiral ko'rinishidagi metall bezak. Uning tilla va kumush ranglilari mavjud. Bezatishda ham bezaklarga bo'lib ishlatiladi. Vag'ardo'zi tikish usuli zardo'zliking guldo'zi usuliga xos bo'lsa-da, vag'ardo'zi bezash usuli za'mindo'zi usulining tarkibiga kiradi. Bunda vag'ar mato yuzasiga qo'yilib, uning ichidan g'altak ip, vag'arning ustiga istalgan turdagi munchoq o'tkazilib, yuzaga qayta qadaladi [3].

Xulosa qilib shuni aytish joizki ayni paytda zardo'zlik korxonalarida ushbu zardo'zlik usullaridan foydalanilmayotgan bo'lsa-da, likkakdo'zi va vag'ardo'zi usullarining buyumlarda qo'llanilishi zardo'zlik san'atining boyib borishi, rivojlanishi va boshqa usullarning paydo bo'lishi uchun xizmat qilgan. Biz xalqimizning boy tarixini, hunarmandchilik turlari haqida keng ma'lumotga ega bo'lishimiz va ularni o'rganishimiz, kelajak avlodlarga o'zgarishsiz yetib borishi uchun harakat qilmog'imiz zarur. Zero, hozirgi insonning yashash muhiti yangi texnologiyalar bilan zamonaviylashayotgan bir paytda mamlakat ko'lamida milliy dizaynni tashkil etish xalqaro bozorda muvaffaqiyatga erishish garovidir.

Adabiyotlar.

1. Buxoro zardo'zlik san'ati. P.A Goncharova. Toshkent-1986
2. Zardo'zlik texnologiyasi. D. Jabborova. G'afur G'ulom Toshkent 2004
3. O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi Buxoro Davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi. Toshkent-2004